

BO‘LAJAK SHIFOKORLARNING MULOQOT KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH KASBIY KOMPETENSIYANING TARKIBIY QISMI

V.Sultanova

-Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti o‘qituvchisi

G.Imamatdinova

Qoraqalpog‘iston tibbiyot

instituti davolash ishi yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya.Maqolada shifokorlik kasbida muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismi ekanligi va muloqotning kasbiy faoliyatda o‘rni to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: muloqot ko‘nikmalari, kasbiy faoliyat, so‘z,

Ko‘pgina kasb egalari o‘z sohasida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi uchun muloqot ko‘nikmalarini egallashni talab qiladi; ba‘zi kasb egalari uchun bu bilimlar-ikkilamchi, ammo shifokor uchun – asosiy.Tibbiy faoliyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu shaxslararo muloqotdir:shifokor va bemor o‘rtasidagi muloqot. Muloqotda ko‘pchilik tinglash madaniyatiga kam e‘tibor qaratadi. Shifokor bemorni tinglay bilish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi ham zarur.Buyuk shifokor va mutafakkir Abu Ali ibn Sino shunday deb yozgan edi: “Shifokorning uchta quroli bor: so‘z, o‘simliklar va pichoq”, bu orqali u so‘zning, ya‘ni alloma muloqotning ahamiyatini ta’kidlamoqchi bo‘lgan. Shifokor kasbi uchta narsaga, ya‘ni tibbiy bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalar professional ko‘nikmalar va, albatta, muloqot ko‘nikmasini, bemor bilan suhbatlashish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak.

Qadimdan allomalar muloqot ko‘nikmasiga alohida ahamiyat berilgan. Muloqot odobi, suhbatdoshga hurmat, maroqli suhbat haqida Abu Rayhon Beruniy, Az-Zamaxshariy, Zayniddin Vosifiy, Husayn Voiz Koshifiy, Bahouddin Naqshband, Mirzo Ulug‘bek, Zahridin Muhammad Bobur, Abulg‘ozi Bahodirxonlarning asarida ibratli fikrlar ta’kidlangan.

Sharqda yuksak muloqot madaniyatiga ega, mashhur voizlar, nuqtadonlar ko‘p bo‘lgan. Mazmunli, ma’noli gapirish, hikmat bilan so‘zlash nihoyatda qadrlangan.

Hozirgi rivojlanayotgan jamiyatda muloqotning mohiyati va uning jadallashuvi muntazam ortib bormoqda. Bu bir qator sabablar bilan bevosita bog'liqdir. Birinchi navbatda insoniyatning sanoatlashgan muloqotdan axborotlashgan muloqotga o'tishi axborotlar ko'lamining kengayishiga olib kelmoqda. Shuning uchun axborotlar almashinish jarayoni ham jadallashmoqda. Ikkinchi sabab shundaki, ishchi-xodimlarning ixtisoslashuvi ularning kasbiy faoliyatning turli sohalariga bandliklari o'z maqsadlariga erishish uchun birlashish va hamkorlikka kirishishlarini taqozo qilmoqda. O'ta muhim sabablardan yana biri shuki, ijtimoiy rivojlanish va fan-texnika taraqqiyoti bizni muloqot ko'lamining kengayishi va rivojlanishi haqida o'ylashga majbur qilmoqda. Shuning uchun talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirish muammosi o'z tadqiqini kutmoqda. Bu o'quv mehnati faoliyati bilan band bo'lgan yoshlarning o'zaro muloqotidir.

Ta'lim jarayonida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish bo'yicha tub izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Muayyan kasb egalari bo'lgan ijtimoiy qatlam a'zolari uchun muloqot kasbiy layoqatning muhim belgisi hisoblanadi. Shuning uchun ham talabalar oliy ta'lim jarayonida muloqot madaniyati ko'nikmalarini har tomonlama puxta o'rganishlari lozim. Shunga ko'ra, muloqotning bir qator vazifalarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi navbatda muloqot har bir insonning shaxs sifatida shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Agar yoshlarni boshqalar bilan muloqot qilish imkoniyatidan mahrum etilsa, bu uning ruhiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, agar bu jarayon bir qadar uzoq vaqt davom etsa tuzatib bo'lmaydigan oqibatlariga olib keladi. Bu haqida hayotda juda ko'plab misollar mavjud. Odam me'yorida rivojlanishi uchun muntazam tarzda atrofdalar bilan bevosita muloqotda bo'lishi lozim. Maxsus kuzatishlar va tajribalarning natijalari shuni ko'rsatadiki, inson bilan muloqotning cheklanishi unda bilish imkoniyatlarining rivojlanishini pasaytiradi. Ayniqsa hozirgi paytda yoshlarning ko'proq o'zlarini uyali aloqa telefonlar bilan doimiy band qilishi, atrofdagilar bilan muloqotda bo'lmasligi salbiy holatlardan biridir. Bu holat ularning jonli muloqotga kirisha bilish, kelib chiqqan nizolarni bartaraf etish qobiliyatlarini cheklab qo'yadi.

Bugungi kunda qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglab yetish, ya'ni

ma'naviyatimizni yuksak darajaga ko'tarish asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Ma'naviyatlilik esa, muloqot ko'nikmasi va madaniyatiga ega bo'lishdan boshlanadi.

Muloqot inson faoliyati natijasiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. Olimlar shuni anglab yetdilarki, insonda u yoki bu xususiyatlarning vujudga kelishi, xulq-atvorining o'ziga xosligi, faoliyatining samaradorligida ko'p jihatdan shaxslararo muloqotning natijasi muhim o'rin egallaydi. Insonning shakllanishida atrofdegilarning u bilan bir xildagi faoliyatni bajarishi va muloqoti muhim o'rin egallaydi.

Muloqot insonlar orasidagi o'zaro hamkorlikning ichki mexanizmlarini vujudga keltiradi. Muloqot mohiyatining ortishi, uni o'rganishning muhimligi shundaki, bugungi rivojlanayotgan jamiyatda bevosita shaxslararo muloqot jarayonida muhim qarorlar qabul qilinadi. Bunday qarorlarni ilgari ayniqsa yopiq jamiyatlarda avtoritar usulda alohida shaxslar qabul qilganlar.

Shuning uchun ham ruhshunoslar guruhli tarzda qarorlar qabul qilishning maxsus metodlarini ishlab chiqqanlar. Ular o'z navbatida an'anaviy metodlarni takomillashtirish yo'llarini taklif qilmoqdalar. Shunday metodlar sirasiga birgalikda yig'ilishlar o'tkazish, guruhli diskussiyalar, aqliy hujum hamda boshqa bir qator metodlarni kiritish mumkin. Bularning barchasi muloqot jarayonini har tomonlama o'rganish zarurligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, muloqot jarayonini aniqlovchi va tashkil etuvchi muayyan qismlarni ham tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Biz uchun mazkur muammoning quyidagi yo'nalishi alohida ahamiyatga ega. Ular: muloqot subyektlari bo'lgan talabalarning sifatlari, muloqot jarayonining vujudga kelishi uchun zarur bo'lgan holatlar, muloqot jarayonida shaxs xulq-atvorining mexanizmlari, uning boshqarilishi, muloqotning yoshlarning istiqboldagi faoliyatiga ta'siri kabilar.

Bo'lajak tibbiyot xodimida hamdardlik tuyg'usining mavjud bo'lishi zarur jihatlarning biri. Bu jarayonda u o'zini boshqalar o'rniga qo'ya olish ko'nikmasini namoyon qiladi. Bemorning ko'zi bilan qarash, uning holatini his qilish va o'z xulq-atvorini hisobga olish kabilarda ifodalanadi.

Hamdardlik – bu hodisalarni tushunib yetmasdan turib, anglash usulidir. Boshqalarning nuqtai nazarini hissiy jihatdan anglash vujudga kelganda o‘zaro mos harakat amalga oshadi. His etishning vujudga kelish imkoniyatlaridan biri – qayg‘udoshlikdir.

Tadqiqotlarda insonning yuz qiyofasida uning his-tuyg‘ulari ifodalanishi har tomonlama asoslab berilgan. Mazkur ishlar(Ekman)da[155] insonning yuz qiyofasi va kechinmalarini yetti xil ko‘rinishi ifodalanishi ochib berilgan.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, shaxslararo muloqotda bir-birini tushunish, odamlar o‘rtasida munosabatlarda muloqot madaniyatiga rioya qilish kasbiy faoliyatni muvafaqqiyatli olib borishda va sog‘lom mikromuhitni vujudga keltirishda muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Аникина А.А. Профессиональная культура общения врача.Bulletin of Medical Internet Conferences. 2016, Volume 6. Issue 1.

2. Экман Пол. Психология эмоций [Emotions Revealed: Recognizing Faces and Feelings to Improve Communication and Emotional Life] Пер. с англ.: В.Кузин. — СПб.: Питер, 2010. — 336 с.

3.Мясищев В.Н. Психология отношений. – М., 2011. 356 с.

4.Файзиев Я.М., Эшбоев Э.Ҳ. Умумий ва тиббиёт психологияси.-Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашри.,2003.-143 б.